



O'RTA ASRLAR SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA ISLOM G'OYALARINING YORITILISHI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Muhammadsharif Odilov

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari asarlarida islom g'oyalarining yoritilishi, ularning ilmiy, axloqiy va ma'naviy hayotdagi o'rni hamda bugungi kundagi ahamiyati keng tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo allomalari merosi asosida islom ta'limotining inson kamolotidagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: islom, ma'naviyat, mutafakkirlar, hadis, fiqh, kalam, axloq.

Annotation: This article examines how Islamic ideas are reflected in the works of medieval Eastern thinkers, their role in intellectual, moral, and spiritual life, and their importance in the modern world. The study is based on the heritage of Central Asian scholars.

Key words: Islam, spirituality, thinkers, hadith, fiqh, kalam, ethics.

Аннотация: В статье анализируется отражение исламских идей в трудах средневековых восточных мыслителей, их роль в духовной, нравственной и научной жизни, а также значение в современном обществе.

Ключевые слова: ислам, духовность, мыслители, хадис, фикх, калам, нравственность.

O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari asarlarida islom g'oyalarining yoritilishi insoniyat tafakkuri tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Islom dini nafaqat diniy e'tiqod tizimi, balki keng qamrovli ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy qarashlar majmui sifatida shakllangan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida yashab ijod qilgan allomalar bu ta'limotni rivojlantirib, uni chuqur ilmiy asosda talqin qilganlar. Ularning asarlarida islom g'oyalari nafaqat diniy hukmlar sifatida, balki inson kamolotiga xizmat qiluvchi universal qadriyatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Islom g'oyalarining shakllanishi va rivojida hadis ilmi alohida o'rin tutadi. Bu borada Imom al-Buxoriyning xizmatlari beqiyosdir. U hadislarni to'plash, tartibga solish va ularning ishonchliligini tekshirish orqali islom ta'limotining asosiy manbalaridan birini yaratdi. Uning "Al-jome' as-sahih" asari nafaqat diniy qoidalarni, balki insonning kundalik hayotida amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy tamoyillarni ham o'z ichiga oladi. Halollik, rostgo'ylik, saxovat, sabr va ota-onaga hurmat kabi qadriyatlar ushbu asarda keng yoritilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Imom al-Buxoriy merosi orqali islomning insonparvarlik mohiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Islom falsafiy tafakkurining rivojida kalam ilmi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu yo'nalishda Abu Mansur al-Moturidiyning qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. U inson aqlining rolini yuqori baholab, e'tiqod masalalarini mantiqiy asosda izohlashga harakat

qilgan. Uning “Kitob at-tavhid” asari islom aqidalarini tushuntirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Moturidiy ta’limotida e’tiqod va aql uyg‘unligi asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Bu esa islomning zamonaviy talqinida ham dolzarb bo‘lib, insonni mustaqil fikrlashga undaydi. Bugungi globallashuv sharoitida aynan shu yondashuv yosh avlodni turli noto‘g‘ri g‘oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom huquqshunosligi, ya’ni fiqh ilmi ham mutafakkirlar merosida keng yoritilgan. Bu borada Burhoniddin al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar islom huquqining asosiy qoidalarini tizimli ravishda bayon etib, jamiyatda adolat va tartibni ta’minlashga xizmat qiladi. Marg‘inoniy asarlarida shariat qonunlari inson manfaatlari bilan uyg‘un holda talqin qilinadi. Bu esa islom g‘oyalarining insonparvarlik mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Fiqh ilmi orqali jamiyatda huquqiy madaniyat shakllanadi va ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. O‘rta asrlar mutafakkirlari islom g‘oyalarini faqat diniy doirada emas, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan ham keng yoritganlar. Bu borada Ahmad Yassaviyning asarlari muhim ahamiyatga ega. Uning “Devoni hikmat” asarida insonni ezgulikka, poklikka va Allohga muhabbat ruhida tarbiyalash g‘oyalari ilgari suriladi. Yassaviy o‘z asarlarida oddiy xalq tushunadigan tilda yozib, islom ta’limotini keng ommaga yetkazgan. Bu esa islom g‘oyalarining jamiyatda keng tarqalishiga xizmat qilgan. Uning qarashlarida insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tiyish va sabr-toqatli bo‘lish kabi tushunchalar muhim o‘rin egallaydi. Xususan, uning quyidagi hikmati insonni nafs bilan kurashish, o‘tkinchi dunyo moliga aldanib haqiqiy insoniy xislatlarini boy bermaslikka, yetimlarga yordam berishga chorlaydi:

Oqil ersang, g‘ariblarni ko‘nglin ovია,
Mustafodek elni kezib yetim kovla,
Dunyoparast nojinslardin bo‘yun tovla,
Bo‘yun tovlab, daryo bo‘lub toshtim mano.

Ko‘rinadiki, Yassaviy hikmatlari xalq tiliga yaqin sodda so‘zlar orqali bayon qilingani uchun ham uni o‘zlashtirish oson. Bu ijodkorning mahorati, so‘z boyligi va axloqiy ilmlarni qanchalik yuksak darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Tasavvuf yo‘nalishida faoliyat olib borgan Najmiddin Kubro ham islom g‘oyalarining chuqur falsafiy talqinini bergan. U insonni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi bosqichlarni izohlab, ruhiy poklanishning ahamiyatini ta’kidlagan. Najmiddin Kubro ta’limotida inson qalbini poklash orqali Allohga yaqinlashish g‘oyasi asosiy o‘rin tutadi. Bu qarashlar bugungi kunda ham insonning ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Islom g‘oyalarining amaliy hayot bilan uyg‘unligini Bahovuddin Naqshband ta’limotida yaqqol ko‘rish mumkin. Uning “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili insonning bir vaqtning o‘zida ham ma’naviy, ham ijtimoiy faol bo‘lishini talab qiladi. Bu g‘oya bugungi zamonaviy jamiyatda ham dolzarb bo‘lib, insonni mehnatsevarlikka, halollikka va mas’uliyatga undaydi. Naqshbandiya ta’limoti orqali islom g‘oyalari kundalik hayotga tatbiq etilib, jamiyat rivojiga xizmat qiladi. O‘rta asrlar Sharq mutafakkirlari asarlarida islom g‘oyalari nafaqat diniy bilim sifatida, balki insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi kuch sifatida talqin etilgan. Ular ilm-fan,

axloq va ma'naviyatni bir-biridan ajratmagan holda rivojlantirganlar. Bu esa islom sivilizatsiyasining yuksalishiga olib kelgan. Ayniqsa, ilm olishga bo'lgan e'tibor, ustozshogird an'alarining rivojlanishi va ilmiy merosning avlodan-avlodga o'tishi bu jarayonning muhim jihatlaridan biridir.

Bugungi kunda islom g'oyalarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Globallashuv jarayonida turli madaniyatlar va qarashlar o'zaro ta'sirga kirishmoqda. Bunday sharoitda islomning asl insonparvarlik g'oyalarini to'g'ri anglash muhimdir. O'rta asrlar mutafakkirlarining merosi esa bu borada ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning asarlarida ilgari surilgan axloqiy qadriyatlar – halollik, adolat, sabr, bag'rikenglik va mehr-oqibat bugungi jamiyat uchun ham dolzarbdir. Shuningdek, islom g'oyalari yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy barkamol, bilimli va mas'uliyatli insonni shakllantirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish katta samara beradi. Ularning asarlarida ilmga intilish, odob-axloqni saqlash va jamiyatga foydali bo'lish kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari asarlarida islom g'oyalari har tomonlama yoritilgan bo'lib, ular insoniyatning ma'naviy rivojiga katta hissa qo'shgan. Bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lib, jamiyatda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Markaziy Osiyo allomalari merosi esa bu borada bebaho manba sifatida xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Махмуд Ҳасаний. Ал-Марғинонийнинг «Ҳидоя» асари ва унга ёзилган шарҳлар. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.
2. Юсупова Н.Ж., Жузжоний А.Ш. Бурхониддин Марғ'иноний: Ҳаёти ва илмий мероси. – Т.: Академия, 2007.
3. Imom Vuxoriy. Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006.
4. Hayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – Toshkent, FAN, 1994.
5. A.Fitrat, Ahmad Yassaviy: Tanlangan asarlar. 2-jild, Тошкент, Ма'naviyat, 2000.
6. И.Ҳаққул, Аҳмад Яссавий, Тошкент, Фафур Фулом, 2001.
7. Ziyodov Sh., Al-Moturidiy hayoti va merosi, T., 2000.
8. <https://share.google/iRupWR4DU7PHgREuP>